

Zumrad Ilxamova,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi
e-mail: zumrad.i@mail.ru



JAMIYATDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (TADQIQOT NATIJALARI)

Annotatsiya. Ushbu maqolada mavzu yuzasidan sotsiologik tadqiqot natijalari keltirilgan bo'lib, unda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mexanizmlari, fuqarolik jamiyati qurilishida ularning faol ishtirokini ta'minlash, partiya a'zolari bo'lgan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy bilimlarini oshirish, huquq va erkinliklaridan foydalanishlarini ta'minlash, ularda faol fuqarolik qarashlarini rivojlantirish, shaxs sifatida shakllanishlari va o'zlarining imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlariga keng imkoniyatlar yaratilish aspektlari yoritib berilgan.

Аннотация. В статье представлены результаты социологического исследования, механизмы повышения общественно-политической активности женщин, обеспечение их активного участия в построении гражданского общества, повышение социальных и политических знаний женщин, состоящих в партии, обеспечение использования ими прав, развитие активных гражданских взглядов, личностных аспектов по созданию широких возможностей для формирования и реализации личного потенциала.

Annotation. The article presents the results of a sociological study, mechanisms for increasing the socio-political activity of women, ensuring their active participation in building a civil society, increasing the social and political knowledge of women who are members of the party, ensuring their use of rights, developing active civic views, personal aspects to create wide opportunities for the formation and realization of personal potential.

Tayanch soʻzlar: *ijtimoiy-siyosiy faollik, xotin-qizlar, tadqiqot, ijtimoiy soʻrovnoma, muammolar, tadbirkorlik, jamiyat, huquq.*

Ключевые слова: *социально-политическая активность, женщины, исследование социологический опрос, вопросник, проблемы, предпринимательство, общество, право.*

Key words: *socio-political activity, women, research sociological survey, questionnaire, problems, entrepreneurship, society, law.*

Kirish. Xotin-qizlar jahon ilm-fan tizimida faol shaxs sifatida doim tadqiqot obyektlaridan boʻlib kelgan. Xususan, ular ijtimoiy faol shaxs sifatida – taʼlim-tarbiyada, subyekt sifatida – ishlab chiqarishda; tadbirkorlikda faol shaxs va oilada masʼuliyatli inson sifatida oʻz mavqeyiga ega boʻlgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tizimida ayollarning faolligi va masʼulligini oshirish muhim ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy masalalardan biri boʻlib, davlat siyosatining asosiy ustuvor yoʻnalishiga aylangan.

2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida gender tenglikni taʼminlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qoʻllab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan¹.

Yangilanayotgan Oʻzbekistonda xotin-qizlarning jamiyat siyosiy hayotidagi ishtiroki muhim rol oʻynaydi. Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda oʻz qobiliyat hamda imkoniyatlarini roʻyobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish borasida mamlakatimizda keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism. “Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusida respublikaning 7 ta hududida xotin-qizlarning hokimiyat, jamoat, siyosat, tadbirkorlik va boshqa sohalaridagi ishtiroki darajasini oʻrganish maqsadida sotsiologik tadqiqot oʻtkazildi. Tadqiqotda 700 nafar dan ortiq xotin-qiz ishtirok etdi.


Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning ijtimoiy-demografik holati boʻyicha taqsimlanish natijalari quyidagicha:

42,8 foizini oliy maʼlumotli;

43,8 foizi oʻrta-maxsus;


13,4 foizi oʻrta maʼlumotga ega shaxslar (1-rasm).

¹ 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ–60-сон Фармони.




1-rasm.

Respondentlarning oilaviy holatiga ko'ra taqsimlanishi bo'yicha: 66,0 foiz turmush qurganlar, 25,6 foizni turmush qurmaganlar, 5,1 foizi ajrashganlar va 2,8 foizi bevalar (2-rasm).



2-rasm.

Tadqiqotda ishtirok etgan xotin-qizlarning 54,6 foizini ishlaydiganlar tashkil etgan, shulardan 25,3 foizi besh yil stajga ega bo'lganlardir (3-rasm).




3-rasm.

Tadqiqotda ishtirok etgan xotin-qizlarning 54,6 foizini ishlaydiganlar tashkil etgan, shulardan 25,3 foizi besh yil stajga ega bo'lganlardir.

Yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, fuqarolik jamiyati qurilishida ularning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida partiya a'zolari bo'lgan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy bilimlarini oshirish, huquq va erkinliklaridan foydalanishlarini ta'minlash, ularda faol fuqarolik qarashlarini rivojlantirish, shaxs sifatida shakllanishlari va o'zlarining imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlariga keng imkoniyatlar yaratilgan va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib kelmoqda.

Yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, fuqarolik jamiyati qurilishida ularning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida partiya a'zolari bo'lgan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy bilimlarini oshirish, huquq va erkinliklaridan foydalanishlarini ta'minlash, ularda faol fuqarolik qarashlarini rivojlantirish, shaxs sifatida shakllanishlari va o'zlarining imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlariga keng imkoniyatlar yaratilgan va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib kelmoqda.

“Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi deganda nimani tushunasiz?”, degan savolga respondentlarning 27,8 foizi oila va jamiyatga foydali bo'lish, kuchli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, 12 foizi ish bilan band bo'lish, daromadga ega bo'lish, kasb bo'yicha kuchli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, xayriya bilan shug'ullanish deb javob berishdi (4-rasm).




4-rasm.

Ijtimoiy-siyosiy turmush, fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqarolik institutlari – siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, xalq harakatlari, ommaviy axborot vositalari, o'zini o'zi boshqarish organlari, ijodiy uyushmalar, madaniy-ma'rifiy uyushmalar muhim rol o'ynaydi.

Aslida, demokratik institutlar bo'lmish ushbu birlashma va tashkilotlar kishilarni jamiyat va davlat boshqaruviga jalb etishga xizmat qiladi. Fuqarolik institutlari jamiyatda demokratik qadriyatlarni shakllantirish orqali ijtimoiy-siyosiy hayotni yangilashga, kishilarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishiga xizmat qiladi.

Bilamizki, mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi xizmatchilarning 45 foizdan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Davlat va jamoat tashkilotlari tizimida ayollarimiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ular senator, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari bo'lib faoliyat yuritmoqda.

Keyingi savolimiz “Siz xotin-qizlarning siyosatdagi ishtirokini ma’qullaysizmi?” degan savol bo’ldi. Ushbu savolga respondentlarning 76,1 foizi “ha” deb javob berdilar, 11,6 foizi “yo’q” va 12,3 foizi javob berishga qiynaldilar (5-rasm).




5-rasm.

Keyingi savolimiz “Siz xotin-qizlarning siyosatdagi ishtirokini ma’qullaysizmi?” degan savol bo’ldi. Ushbu savolga respondentlarning 76,1 foizi “ha” deb javob berdilar, 11,6 foizi “yo’q” va 12,3 foizi javob berishga qiynaldilar.

Bizga yaxshi ma’lumki, bugungi kunda birgina O‘zbekiston Xalq Demokratik partiyasi a’zolarining 49 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Ulardan 200 nafardan ortig‘i mintaqaviy va mahalliy partiya tashkilotlarida turli lavozimlarda faoliyat yuritadi.

Keyingi savolimiz orqali respondentlarning 19,3 foizi partiyalarga a’zoligi va 80,7 foizi a’zo emasligini aniqlangan (6-rasm).



6-rasm.

Yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, fuqarolik jamiyati qurilishida ularning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida partiya a’zolari bo’lgan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy

bilimlarini oshirish, huquq va erkinliklaridan foydalanishlarini ta'minlash, ularda faol fuqarolik qarashlarini rivojlantirish, shaxs sifatida shakllanishlari va o'zlarining imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlariga keng imkoniyatlar yaratilgan hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib kelmoqda.

Yakuniy qism. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, xotin-qizlarning faolligini ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi mamlakatimizning muhim qadamlaridan sanaladi.

Davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlarning ishtirokiga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy manfaatlarini tenglik tamoyili asosida hal qilish maqsadga muvofiq. Bu kabi vazifalar barcha xotin-qizlarning huquq va manfaatlari, salohiyat va imkoniyatini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Yuqorida qayd etilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ayollarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida to'laqonli ishtirok etishiga erishish, gender tenglikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati naqadar to'g'riligiga ishonch hosil qilamiz. Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, ularni ishga joylashtirish, uy-joy bilan ta'minlash, bir so'z bilan aytganda har qanday muammolarning yechimi yuzasidan aniq, huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilgan va samarali natijalar bermoqda.

Bugungi kun talabi xotin-qizlarni yangicha yondashuv, yangicha g'oya va yangicha tashabbuslar bilan chiqishlariga ko'mak berish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanishlar, siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг онлайн форматда ўтаётган 75-сессиясидаги нутқи* // <https://daryo.uz/k/2020/09/23/shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-onlaynformatda-otayotgan-75-sessiyasida-nutq-sozladi-video>
2. *Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар байрамига бағишланган учрашувдаги нутқи. 2018 йил 18 март* // <https://agroolam.uz/prezident-tabrigi>
3. *Мухитдинова Ф. Хотин-қизлар сиёсий фаоллигини оширишда сиёсий фанларнинг ўрни // Ўзбекистонда политологиянинг янги босқичи. Республика илмий амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: 2022.*
4. *Хаитова А. Хотин-қизлар сиёсий фаоллигини ошириш масалалари* // <https://cyberleninka.ru/article>